

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 55 712,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 8,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 105,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	48 589,9	55 712,6	108,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 233,2	53 099,4	108,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2 356,7	2 613,2	115,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	46 233,2	53 099,4	108,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 944,6	16 667,4	105,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 227,9	12 732,4	111,3
sanoat	8 073,9	8 841,0	108,3
qurilish	3 154,0	3 891,4	119,0
xizmatlar	20 060,7	23 699,6	108,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 504,5	8 992,1	112,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 523,8	3 180,8	118,7
boshqa xizmat tarmoqlari	10 032,4	11 526,7	102,6

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 931,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,2 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,1	95,3
mahsulotlarga sof soliqlar	4,9	4,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,3	31,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,3	23,9
sanoat	17,5	16,6
qurilish	6,8	7,3
xizmatlar	43,4	44,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,2	16,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	6,0
boshqa xizmat tarmoqlari	21,7	21,8




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 31,4 % ni, sanoat tarmog'i 16,6 % ni, qurilish 7,3 % ni va xizmatlar sohasi 44,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 3,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,4 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 3,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,8 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda – 108,3 % (16,6 %), qurilishda – 119,0 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 112,3 % ni (44,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,3 % (16,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,7 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % dan (21,8 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



5,9 %

YAHM

8,0 %



4,1 %

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi**

5,1 %



7,0 %

Sanoat

8,3 %



2,7 %

Qurilish

19,0 %



7,0 %


Xizmatlar

8,2 %



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 109,1 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 106,1 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 37 138,4 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 32 786,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 70,9 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 69,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

32 786,5

70,9 %

2026- yil

37 138,5

69,9 %

